

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MANTIQUIY TAFAKKURNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Djabbarova Sevara Ilxam qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar — ta'lim metodlari, oila, psixologik sharoit va individual xususiyatlar yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida mashqlarni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish, ko'rgazmalilik va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda o'qitish metodikasini takomillashtirish va bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, kichik maktab yoshi, ta'lim, psixologik omillar, oila, rivojlanish.

Аннотация: В статье освещены факторы, влияющие на развитие логического мышления у детей младшего школьного возраста, такие как методы обучения, семья, психологические условия и индивидуальные особенности. Также показаны пути развития логического мышления через системную и поэтапную организацию упражнений в учебном процессе, использование наглядности и проблемных ситуаций. Результаты исследования имеют важное значение в совершенствовании методики преподавания в начальном образовании и повышении интеллектуального потенциала детей.



Ключевые слова: логическое мышление, младший школьный возраст, обучение, психология, семья, развитие.

Annotation: The article highlights the factors influencing the development of logical thinking in primary school children, including teaching methods, family environment, psychological conditions, and individual characteristics. It also demonstrates ways to develop logical thinking through the systematic and step-by-step organization of exercises, the use of visual aids, and problem-solving situations in the educational process. The research findings are of significant importance in improving teaching methodologies in primary education and enhancing the intellectual potential of children.

Keywords: logical thinking, primary school age, education, psychological factors, family, development.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida jamiyatda mantiqiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, tahliliy yondashuvga ega shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimining dolzarb vazifasiga aylangan.[1] Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining shakllanish bosqichi bo'lib, bu davrda mantiqiy fikrlash asoslarini to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Hozirgi zamon ta'lim tizimida bolalar aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, ayniqsa mantiqiy tafakkurini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Mantiqiy tafakkur- bu to'g'ri xulosa chiqarish, dalillar asosida fikr yuritish va muammolarni yechish qobiliyatidir. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bu qobiliyatni shakllantirish ularning umumiy aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Kichik maktab yoshi (7-10 yosh) bolalar uchun tafakkur shakllanishining faol davri hisoblanadi. Ushbu bosqichda:

1. Qiziqish yuqori darajada boladi- bolalar yangilikka intiladi, turli savollar beradi va o'z tafakkurini faol ishga solidi.



2. Nazariy emas, amaliy tafakkur ustun bo'ladi- bolalar ko'proq amaliyot orqali, ya'ni turli o'yinlar, mashqlar, visual materiallar yordamida mantiqiy munosabatlarni anglaydi.

3. Mantiqiy bog'lanishlarni o'rnatish qobiliyati rivojlanadi- sabab-oqibat munosabatini tushunish, umumlashtirish, taqqoslash, kategoriyalarga ajratish kabi amallar shakllanadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi usul va vositalar samarali hisoblanadi:

-Logik o'yinlar (masalan, sudoku, shaxmat, "nimani topding?" kabi o'yinlar)

Mantiqiy savol-javoblar va aqliy xujjatlar (masalan "Agar yomg'ir yog'sa, nima bo'ladi?");

Matnli masalalar va yozma mashqlar (u yerda bola xulosa chiqarish kerak);

-Vizual materiallar (rasmlar, diagrammalar, sxemalar orqali tafakkurni faollashtirish);

-Interaktiv darslar va guruhli ish- bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha nafaqat o'zbek, balki xalqaro miqyosda ham ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan. Quyida ushbu sohada mashxur bo'lgan asosiy olimlar va ularning tadqiqot yo'nalishlari keltirilgan.

J.Piaget bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini, bolalarning mantiqiy fikrlash darajasi kattalarnikidan farq qilishini va bu tafakkur bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlagan. [1] **Shunday qilib**, bola mantiqiy tafakkur elementlariga ega bo'lsa-da, ular hali to'liq shakllanmagan bo'ladi va atrof-muhit, ta'lim, oila kabi omillar bu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

L.Vygotskiy tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi va rivojlanishda bir-biriga ta'sir etishini, ichki nutq tafakkurning muhim shakli ekanligini, ijtimoiy muhit va

madaniy vositalar tafakkurning rivojiga ta'sir etishini, "Zone of Proximal Development" (yaqin rivojlanish zonasi) bolaning o'z-o'zidan qilolmaydigan, ammo boshqalar yordami bilan bajara oladigan faoliyatlar zonasi nazariyasini yaratgan. [2] Kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurning rivojlanishida til va nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq rivojlangani sari bola o'z fikrlarini ifodalashni va murakkab tushunchalarni o'zlashtirishni o'rganadi. Bolada kognitiv jarayonlarining rivojlanishi albatta kattalar va rivojlangan tengdoshlar ko'magida amalga oshadi. Bola o'zining hozirgi bilim va ko'nikmalaridan tashqarida yangi narsalarni o'rganadi.

J.Bruner konstruktivlik o'qitish va bolalarda tushunchalar shakllanishini o'rgangan. Bu g'oyalar orqali ta'limda tafakkurni faollashtirish uchun hikoya, savol-javob va izlanishlarga asoslangan yondashuvlarni ilgari surgan. J.Bruner tafakkurning ikki shakli Logik-ilmiy tafakkur (sabab-oqibat va isbotga asoslangan) va Narrativ tafakkur (voqealarni hikoya qilish orqali ma'no yaratish) farqlaydi. [3] K.Popper ilmiy fikrlashda falsifikatsiya (rad etish) tamoyilini ilgari suradi. Tafakkurda notog'rillarni tan olish orqali haqiqatga yaqinlashish mumkinligini ta'kidlagan [4]

O'zbek olimlaridan A.Jo'rayev tafakkur madaniyati va o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish, M.Ashurov fikrlash va nutqning uzviy bog'liqligi, lingvistik tafakkur, D.Matyoqubova ijodiy tafakkurni bolalarda rivojlantirish va metodik yondashuvlarni o'rganganlar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bu yoshda konkret (aniq) tafakkur bosqichida bo'ladi. (J.Piaget nazariyasiga ko'ra)

Ular abstrakt tushunchalardan ko'ra ko'z bilan ko'rish, amalda bajarish orqali yaxshiroq tushunadilar. Tushunchalarni mantiqan bog'lashni o'rganadilar. Bu yoshda tafakkurni rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar erkin fikrlashni rag'batlantirish, savollarga erkin javob berish, turli darajadagi mantiqiy topshiriqlar va testlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Tafakkurning rivojlanishi natijasida bolalarda mustaqil fikrash, xulosa chiqarish, analiz va sintez



qilish ko'nikmalari, muammolarni turli yo'l bilan hal qilish qobiliyatlari shakllanadi. Xulosa o'rnida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ta'lim jaratonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning fikrlash faoliyatini rag'batlantiruvchi murabbiy vazifasini ham bajarishi lozim. Mantiqiy tafakkurga ega bo'lgan o'quvchi keyinchalik mustaqil qaror qabul qila oladigan, tahlilchi va ijodkor shaxsga aylanadi.

Tafakkur rivojlanishiga oila muhiti katta ro'l o'ynaydi. Chunki mantiqiy tafakkurning rivojlanishida bola yashaydigan oilaviy muhit katta ahamiyatga ega. Oilada bola bilan suhbatlar, savollarga birgalikda javob topish, muammoli vaziyatlarni hal qilish — bularning barchasi bolaning mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi. Ikkinchidan maktab va o'qituvchining roli ham muhim. O'qituvchi dars jarayonida bolalarga turli mantiqiy topshiriqlar, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularning tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Fanlararo bog'liqlikni yo'lga qo'yish ham bolalarning turlicha fikrlash qobiliyatlarini kengaytiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin orqali o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy o'yinlar, boshqotirmalar, konstruktorlar va shaxmat kabi faoliyat turlari bolaning tafakkurini rivojlantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham to'g'ri foydalanish — bu bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi.

Interaktiv dasturlar, mobil ilovalar va didaktik o'yinlar bu borada katta yordam beradi. Matn ustida ishlash, kitob o'qish va uni tahlil qilish orqali bola tahliliy fikrlashga o'rganadi. Ayniqsa, ertak, hikoya, topishmoq va maqollarga boy adabiyotlar mantiqiy fikr yuritishni faollashtiradi. Har bir bolaning tafakkur rivojlanish sur'ati har xil. Xotira, sezgirlik darajasi mantiqiy fikrlashga bevosita ta'sir qiladi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiya va ta'lim orqali bolada mustahkam

mantiqiy tafakkur asoslari shakllanadi, bu esa uning kelajakdagi intellektual rivoji uchun muhim zamin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish — ularning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarda mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga nafaqat ta'lim muassasasidagi dars jarayonlari, balki oila muhiti, psixologik-pedagogik yondashuvlar va individual xususiyatlar ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, har bir bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, ularning mantiqiy tafakkurini izchil va barqaror shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida faollikka undovchi metodlardan, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish bugungi kun ta'limi oldidagi dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. J.Piaget (1959). The Language and Thought of the Child.
Printed In Great Britain by Percy Lund , Humphries Co.Ltd London and
Broadford
2. L.S.Vygotskiy (1934). Thinking and Speech
3. J.Bruner (1986). Actual Minds, Possible Worlds
Printed in the USA ISBN 0-674-00365-9
4. Karl Popper (1959) The Logic of Scientific Discovery.
11 New Fetter Lane, London ISBN 0-203-99462 (57 bet)
5. A.Jo'rayev (2008) Tafakkur madaniyati
6. M.Ashurov (2015) Fikrlash va Nutq
7. D.Matyobova (2021) Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish